

40 ta xorijiy atama o'zbekcha muqobillariga almashtirildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-sonli "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2020 - 2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni muntazam ravishda rasmiy muomalaga kiritib borish vazifasi belgilangan.

Mazkur Farmonning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi majlisining 62-son bayoni qabul qilindi. Ushbu bayonga ko'ra, o'zbek tilida qo'llanilib kelayotgan 40 ta xorijiy atama o'zbekcha muqobillariga almashtirildi.

T/r	Chet tillarga oid so'z va atamalar	Ularning ma'nosi	Rasmiy muomalaga kiritiladigan shakli	Amaldagi qonunchilik hujjatlarida qo'llanishi
1.	Аванс	Fransuz tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, "oldindan to'lov", "jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan boshqasiga kelgusida to'lanadigan haq hisobidan oldindan beriladigan pul miqdori" degan ma'noni bildiradi.	Bo'nak	"Avans" va " bo'nak " atamalari qonunchilik hujjatlarida, rasmiy ish yuritishda hamda jonli muloqotda barobar qo'llanmoqda. " Bo'nak " atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi hamda atamaning yagona shaklda qo'llanishiga olib keladi.
2.	АВТОПИЛОТ	Yunon va fransuz tillaridan o'zlashgan so'z birikmasi. Turli transport vositalarini inson aralashuvisiz avtomatik boshqarish tizimi ma'nosida qo'llaniladi.	Avtoboshqaruv	"Avtopilot" atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanmoqda. " Avtoboshqaruv " atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi. Hozirda turli lug'atlar, OAV, rasmiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda ishlatib kelinmoqda.
3.	Айсберг	Nemis tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, okean va dengizlarda erkin suzib yuruvchi katta muz bo'lagi - "muz tog'" degani.	Muztog'	"Aysberg" va " muztog' " atamalari darslik, qo'llanmalarda, firma va tovar nomi sifatida qo'llangan. Bundan tashqari, lug'atlarda o'zaro sinonim sifatida berilib, OAV, rasmiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda foydalanilmoqda. " Muztog' " atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
4.	Бодикамера	Ingliz tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, "tana kamerasi" ma'nosida keladi.	Yonkamera	"Bodikamera" atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanmoqda. " Yonkamera " atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi. Hozirda turli lug'atlar, OAV, rasmiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda ishlatib kelinmoqda.
5.	Брызговик	Rus tilidan o'zlashgan so'z. G'ildiraklardan otildigan loy va suv turli tomonlarga sachrashining oldini oladigan jihoz.	Loyto'skich	Ushbu atama qonunchilik hujjatlarida " <i>sachratmagichlar (brizgovik)</i> " shaklida qo'llangan. Jonli muloqotda esa " brizgovik " tarzida ishlatib kelinmoqda. " Loyto'skich " atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.

6.	Внедорожник	Rus tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, qiyin sharoitlarga chidamli avtomobil ma'nosini bildiradi.	Yo'ltanlamas	"Yo'ltanlamas" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi. Bundan tashqari, atamadan OAV, rasmiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda foydalanib kelinmoqda.
7.	Дискуссия	Lotincha "discussio" so'zidan o'zlashgan bo'lib, muammo yuzasidan erkin muhokama, bahs, munozaraga kirishish ma'nosini bildiradi.	Bahs, munozara	"Diskussiya" atamasi darslik, qo'llanmalar, ilmiy ishlarda qo'llanmoqda. "Bahs", "munozara" atamaları o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi. Ular manbalarda sinonim sifatida birga qo'llanib, OAV, rasmiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda foydalanilmoqda.
8.	Доставка	Rus tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, tovarlarni belgilangan manzilga yetkazish, eltib berish ma'nolarida keladi.	Yetkazish	"Dostavka" so'zi umumiy ovqatlanish shoxobchalarida, savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda, tovar, narsa-buyumlarni yetkazish xizmatlari, reklamalarda, umuman, jonli so'zlashuvda faol qo'llanmoqda. "Yetkazish" so'zi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
9.	Зона	Yunoncha "zona" so'zidan o'zlashgan bo'lib, "mintaqa", "belbog'", chiziqlar bilan belgilangan chegara joylar ma'nosini bildiradi.	Hudud	"Zona" atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanmoqda. "Hudud" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
10.	Карвинг	Ingliz tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, "kesish", "o'yish" degani. Hozirda meva, sabzavot va narsa-buyumlarga kesib, o'yib bezak berish san'ati ma'nolarida qo'llanmoqda.	O'ymabezak	"Karving" atamasi tegishli sohalar hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanmoqda. "O'ymabezak" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
11.	Конфиденциал	Lotincha "confidentialis" so'zidan olingan bo'lib, "ishonchga loyiq", "maxfiy" degan ma'noga to'g'ri keladi.	Maxfiy	"Konfidensial" atamasi tegishli sohalar hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanmoqda. "Maxfiy" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
12.	Кластер	Ingliz tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, "mo'y qalam", "to'plam", "to'da" degan ma'noda keladi. Bir maqsad uchun birlashgan kichik tuzilma.	Klaster	"Klaster" atamasi qonunchilik hujjatlarida, rasmiy ish yuritishda hamda jonli muloqotda qo'llanmoqda. "Klaster" atamasi keng ommalashgan tushuncha, o'zbek tiliga o'zlashib, lug'at boyligini oshirishga xizmat qiladi.
13.	Коворкинг	Ingliz tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, "hamkorlik" degani. Tadbirkorlar yoki turli ish beruvchilar uchun ishlaydigan odamlar tomonidan jihozlar, g'oyalar va bilimlar almashishga mo'ljallangan ofis yoki boshqa ish muhiti.	Ish markazi	"Kovorking" atamasi tegishli sohalar hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanmoqda. "Ish markazi" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.

14.	Коловорот	Rus tilidan o'zlashgan so'z. Aksariyat hollarda yog'ochda diametri katta teshiklarni parmalash yordamida ochish uchun ishlatiladigan qo'l asbobi.	Qo'lparma	"Kolovorot" atamasi texnika, avtomobilsozlik sohalarida qo'llanmoqda. "Qo'lparma" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
15.	Коридор	Italyan tilidan o'zlashgan so'z bo 'lib, bino ichidagi xonalarni bir-biriga bog'lovchi yo'lak ma'nosini beradi.	Yo'lak	"Koridor" atamasi jonli muloqot, tegishli sohalar hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanmoqda. "Yo'lak" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
16.	Котлован	Rus tilidan o'zlashgan so'z bo 'lib, "poydevor chuquri" degan ma'noni bildiradi.	Xandaq	"Kotlovan" atamasi tegishli sohalar hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanmoqda. "Xandaq" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
17.	Лебёдка	Rus tilidan o'zlashgan so'z. Baraban yoki "yulduzcha"ga o'raladigan harakatlanuvchi arqon (yoki zanjir) vositasida yuklarni ko'tarish va boshqa yerga ko'chirishga xizmat qiluvchi moslama.	Chig'ir	"Lebyodka" va "chig'ir" atamaları tegishli sohalar hamda qonunchilik hujjatlarida barobar qo'llanmoqda. "Chig'ir" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
18.	Лидер	Ingliz tilidan o'zlashgan so'z bo 'lib, "birinchi", "birinchi yuruvchi", "yetakchi" degan ma'nolarni bildiradi.	Yo'lboshchi, yetakchi	"Lider" atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanmoqda. "Yo'lboshchi" va "yetakchi" atamaları o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
19.	Линк	Ingliz tilidan o'zlashgan so'z bo 'lib, "bog'lam", "aloqa", "ikki narsa yoki vaziyat o'rtasidagi munosabat, bog'lanish" ma'nolarida qo'llaniladi.	Havola	"Link" atamasi ilmiy tadqiqot ishlarida, o'quv jarayonida, umuman, jonli so'zlashuvda faol qo'llanmoqda. "Havola" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
20.	Маркировка	Nemis tilidan o'zlashgan so'z bo 'lib, "tamg'alash", "belgilash" degan ma'noni bildiradi.	Tamg'alash	"Markirovka" va "tamg'alash" atamaları tegishli sohalar hamda qonunchilik hujjatlarida barobar qo'llanmoqda. "Tamg'alash" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
21.	Маршрут	Fransuz tilidan o'zlashgan so'z bo 'lib, "yurish", "yo'l", "yo'nalishli yo'l" ma'nolarini bildiradi.	Yo'nalish	"Marshrut" atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanmoqda. "Yo'nalish" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
22.	Мастер класс	Ingliz tilidan o'zlashgan so'z bo 'lib, "mahorat darsi", "mahorat ustaxonasi" degan ma'noni ifodalaydi.	Mahorat darsi	"Masterklas" atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanmoqda. "Mahorat darsi" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.

23.	Мотивация	Lotincha “movere” soʻzidan olingan boʻlib, “harakat”, “harakat qilishga undash” maʼnosida kelgan.	Ruhlantirish, ragʻbat	“Motivatsiya” atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qoʻllanmoqda. “Ruhlantirish” va “ragʻbat” atamaları oʻzbekcha muqobil sifatida tushunchaning maʼnosini ifodalaydi.
24.	Навигатор	Lotincha “navigator” soʻzidan oʻzlashgan boʻlib, “kemani yoʻlga boshlash/yoʻllash” maʼnosini bildirgan.	Yoʻllagich	“Navigator” atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qoʻllanmoqda. “Yoʻllagich” atamasi oʻzbekcha muqobil sifatida tushunchaning maʼnosini ifodalaydi.
25.	Наждак	Rus tili orqali oʻzlashgan soʻz. Najdak minerali bilan qoplangan qogʻoz, qurilish sohasida hamda metallarni silliqlashda foydalaniladi.	Qumqogʻoz	“Najdak” atamasi jonli muloqotda, qonunchilik hujjatlarida qoʻllanmoqda. “Qumqogʻoz” atamasi oʻzbekcha muqobil sifatida tushunchaning maʼnosini ifodalaydi.
26.	Оправа	Rus tilidan oʻzlashgan soʻz boʻlib, biron narsani joylash mumkin boʻlgan asos, gardish, tegra maʼnolarida keladi.	Gardish	“Oprava” atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qoʻllanmoqda. “Gardish” atamasi oʻzbekcha muqobil sifatida tushunchaning maʼnosini ifodalaydi.
27.	Отвёртка	Rus tilidan oʻzlashgan soʻz boʻlib, “burash”, “aylantirish” maʼnosida keladi, burama mixlarni qotirish va yechib olishda ishlatiladigan asbob nomi.	Buragich	“Otvyortka” atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qoʻllanmoqda. “Buragich” atamasi oʻzbekcha muqobil sifatida tushunchaning maʼnosini ifodalaydi.
28.	Парол	Fransuz tilidan oʻzlashgan soʻz boʻlib, “maxfiy shartli soʻz” degan maʼnoda keladi.	Oʻron	“Parol” atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qoʻllanmoqda. “Oʻron” atamasi qadimgi yozma manbalarimizda aynan “parol” tushunchasining maʼnosida ishlatib kelingan. Atama oʻzbekcha muqobil sifatida tushunchaning maʼnosini ifodalaydi va lugʻat boyligini oshirishga xizmat qiladi.
29.	Переплёт	Rus tilidan oʻzlashgan soʻz boʻlib, “kitobni muqovalash” degan maʼnoni bildiradi.	Muqovalash	“Pereplyot” atamasi qonunchilik hujjatlarida qoʻllanmoqda. Nashriyot, bosmaxona ishlarida, tashqi reklamalarda, umuman, soʻzlashuvda faol soʻz hisoblanadi. “Muqovalash” atamasi oʻzbekcha muqobil sifatida tushunchaning maʼnosini ifodalaydi.
30.	Полик	Rus tilidan oʻzlashgan soʻz boʻlib, “kiyim qiyqimi”, “gilamcha”, “toʻshama”, “avtomobil gilamchasi” maʼnolarini bildirgan.	Toʻshama	“Polik” atamasi narsa-buyum nomi sifatida faol qoʻllanadigan soʻzlardan biri hisoblanadi. “Toʻshama” atamasi oʻzbekcha muqobil sifatida tushunchaning maʼnosini ifodalaydi.

31.	Портфолио	Lotin va italyan tillaridan o'zlashgan so'z birikmasi bo'lib, "muhim hujjatlar papkasi", "yutuqlar jamlanmasi" degan ma'nolarni bildiradi.	Yig'majild	"Portfolio" atamasi tegishli sohalar hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanmoqda. "Yig'majild" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
32.	Прогрессив	Lotincha "progressus" so'zidan o'zlashgan bo'lib, "ilg'or", "muvaqqiyat", "ilgari yurish" ma'nolarida kelgan.	Ilg'or	"Progressiv" atamasi tegishli sohalar hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanmoqda. "Ilg'or" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
33.	Растушевка	Rus tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, "soya berish", "bir rangdan ikkinchisiga tush yordamida silliq o'tish" degan ma'nolarda keladi.	Qoshpardoz	"Rastushevka" atamasi xizmat ko'rsatish sohasida qo'llaniladi. "Qoshpardoz" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
34.	Светофор	Rus va yunon tillaridagi so'zlar birikmasi bo'lib, "nur taratuvchi", avtomobillar harakatini tartibga soluvchi chiroq ma'nosini bildirgan.	Yo'lchiroq	"Svetoфор" atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanmoqda. Harakatni tartibga soluvchi qurilma sifatida so'zlashuvda faol so'zlardan biri hisoblanadi. "Yo'lchiroq" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
35.	Силлабус	Lotincha "syllabus" so'zidan olingan bo'lib, "ishlar ro'yxati", "katalog", "ilova" degan ma'noda qo'llanilgan.	Ishchi dastur	"Syllabus" atamasi tegishli sohalar hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanmoqda. "Ishchi dastur" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
36.	Смарт	Ingliz tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, "aqlli", "ustomon", "epchil" ma'nolarida qo'llanilgan. Murakkab texnik vazifalarni tez va xatosiz bajaradigan qurilma.	Aqlli	"Smart" va "aqlli" atamaları tegishli sohalar hamda qonunchilik hujjatlarida barobar qo'llanmoqda. "Aqlli" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
37.	Челленж	Ingliz tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, "chaqiriq", "bellashuv", "chorlov" ma'nolarida keladi.	Chorlov	"Chellenj" atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanmoqda. "Chorlov" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi. Hozirda OAV, rasmiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda ishlatilib kelinmoqda.
38.	Шуруп	Nemis tilidan o'zlashgan so'z. Metall, yog'och va plastik jismlarni bir-biriga ulash, bog'lash uchun qo'llaniladigan burama mix turi ma'nolarini bildiradi.	Buramamix	"Shurup" atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanmoqda. "Buramamix" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.

39.	IT парк	Ingliz tilidan o'zlashgan so'z birikmasi bo 'lib, axborot texnologiyalari parki ma'nosini bildiradi.	AT parki (Axborot texnologiyalari parki)	"IT parki" atamasi qonunchilik hujjatlarida faol qo'llanmoqda. Bundan tashqari, ko'plab e'lon, reklama, tashqi yozuvlarda ham shu shaklda yozilmoqda. Tushunchaning bu shaklda berilishi o'zbek tili qoidalariga mos emas. "AT parki" (Axborot texnologiyalari parki) atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.
40.	IT технологиялари	Ingliz tilidan o'zlashgan so'z birikmasi bo 'lib, axborot texnologiyalari ma'nosini bildiradi.	Axborot texnologiyalari (AT)	"IT texnologiyalari" atamasi qonunchilik hujjatlarida faol qo'llanmoqda. Bundan tashqari, ko'plab e'lonlar, reklamalar, tashqi yozuvlarda ham shu shaklda ishlatilmoqda. "Axborot texnologiyalari" (AT) atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.

Ushbu jarayonda O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti bilan hamkorlikda ish olib bordi, shuningdek, mazkur departamentning ekspertlar guruhida xorijiy atamalar muhokamadan o'tkazildi.

Almashtirilishi lozim bo'lgan 40 ta xorijiy atamaning milliy muqobillarini aniqlashda O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tilshunoslari ushbu atamalar tegishli soha vakillari bilan muntazam muloqotda bo'ldi. Shuningdek, xorijiy atamalar OAV hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamadan o'tkazildi, tilimiz taqdiriga befarq bo'lmagan yurtdoshlarimizning takliflari hisobga olindi.

O'ylaymizki, ushbu ishlar o'z vaqtida amalga oshirilmoqda. Negaki ayni amaliy harakatlar o'zbek tilining sofligi saqlash, uning davlat tili sifatida yanada to'liq kuch bilan ishlashiga, rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.